

Aviakompaniya korrupsiyaga qarshi tashabbuslarini davom ettirmoqda

2022 28 July

Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo?yayotgan O?zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko?rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavflidir. Shu sababli mamlakatimizning barcha sohalarida, davlat organlari va tashkilotlarida ilg?or xalqaro standartlarga asoslangan, korrupsiya bilan murosasiz kurashga qaratilgan tizimni joriy etish bo?yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2022-yil 26-iyul kuni “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyatida O?zbekiston Respublikasi DXX, Transport prokuraturasi, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo?mitasi mutaxassislari ishtirokida aviakompaniyaning raxbar va xodimlari bilan ularning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi huquqiy bilimlarini takomillashtirishga qaratilgan “Biz korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida tadbir o‘tkazildi.

Tadbir ishtirokchilariga O?zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-sonli “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to?g?risida”gi Farmonining mazmun-mohiyati va bugungi kundagi ahamiyati tushuntirildi.

Shu bilan birga, tadbir ishtirokchilari korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini ijro etish samaradorligini oshirish, korruptsiyaga qarshi xatti-harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda huquqiy ma’rifatning o‘rnini muhokama qildilar.

Shuningdek, tadbirda davlat xizmatidagi manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va oldini olish samaradorligini oshirish, aviakompaniya xodimlari tomonidan axloq me’yorlariga rioya etish va korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik masalalari ko‘rib chiqildi.

Aviakompaniya mas’ul rahbarlariga tegishli vazifalar va ularni bajarish muddatlari belgilandi.